sanat maerillari va uy xo'jalik bo'yash ishlarida foydalanishgan. Boshqa yevropa loyixalari ayrim dasturlar va Angliyada olib borilayotgan inavatsion biotexnologik tadqiqot tufayli bundan xabar topishdi. Bu fermalarni alternative daromad manbasi bilan ta'minlashi kerak va global iqlim o'zgarishi xam t a'sir qilishi mumkin, bo'yoq barglari bir necha quyoshli kundan yig'ib olinsa ko'proq "Indigo" pigmenti oldingilarga nisbatan ko'proq bo'ladi. Bu janubiy Angliya uchun yaxshi yangilik bo'lib masalan, xozir uning iqlimi issiqroq va o'rta asirlardagi Janubiy Fransiyaning bo'yoq o'simligi yetishtiruvchi viloyatlariga o'xshash. Shuni aloxida takidlash joizki, tuprolarimizda birinchi marta ekilayotgan indigofera va boshqa dukkakli ekinlarning barch barchasining ildizida azot to'plovchi tugunak baqteiyalar shakillanadi. Demak tuproqlarimizda tugunak baqteriyalarning barcha ekinga mos terassalari mavjud. Shunday ekan, tuproqlarimizning unumdorligini oshirish, yoki xech bo'lmaganda xozirgi mavjud darajasida saqlab turish uchun bir yillik dukkakli ekinlarda foydalanish maqsadga muofiqdir.

3.1UrDUo'quv –tajriba xo'jaligida o'tkazilgan tajriba tizimi.

2006-2010 yillarda ZEF/YUNESKO ning O'zbekistondagi Vakolatxonasi tomonidan belgilangan tajriba sxemasi bo'yicha kuzatuvlar o'tkazildi. Tajribalar tuproqni ekish

oldida ishlab xamda ishlamasdan urug' ekish bilan boshlandi. Tiproqni ishlash yani haydash xamda foydalanmasdan ustki 1-2sm qismini yumshatish bilan urug' ekiladi. Shuningdek bo'laklarga go'ng berib va bermasdan ekishga tayyorlandi. Tajriba bo'lakchalari va sinov bo'lakchalarini joylashtirish tartibi 3.1.1 va 3.1.2 jadvalida keltirilgan.

Tajriba rejasi

(UrDU o'quv-tajriba xo'jaligi, 2006yil)

Variantlar	
V ₁	Tuproqni ekish olididan go'ng va ishlov bermasdan ekish.
V ₂	Tuproqni ekish oldidan ishlov berib va go'ng bermasdan ekish.
V ₃	Tuproqni ekish oldidan ishlov bermasdan va go'ng bermasdan ekish va berib.
V ₄	Tuproqni ekish oldidan go'ng va ishlov berib ekish.

Bo'lakchalarni joylashtirish tartibi.

3.1.2-jadval

V ₁	V ₂	V ₃	V ₄
V ₂	V ₁	V ₄	V ₃
V ₃	V ₂	V ₁	V ₄
V ₄	V ₁	V ₂	V ₃

Eslatma : Bo'lakchalar rendamizasiya usulida (bo'lakchalar maydonchani barcha qismida aralash tarqatilib) joylashtiriladi.

Sinov bo'lakchalari uzunligi 6 metr eni 4 metr ya'ni 24m^2 maydonni egallaydi. Bo'lakchalar 4 ta takrorlanishda joylashtirildi jami tajriba maydoni 0.07 ga yerni tashkil qildi. Tajriba uchun degradatsiyaga uchragan, 3-4 yil ekin ekilmasdan yotgan, sho'rlangan yer maydoni tanlanadi. Erta baxorda tuprog'ining sho'ri gektariga 3000m^2 suv sarflanib 3 marta yuviladi. Sho'r yuvishga va o'simliklarni o'sish davrida sarflangan suv miqdori "Chipaletti" suv o'lchagichi yordamida olib boriladi. Urug'ning ekishdan oldin tuproqning har 10 sm qatlamidan yer osti sezoy suligach namuna olinadi.

Shuningdek tuproq ustki 0-50 sm qatlamining tabiiy xajm massasi aniqlanadi.

Tajriba bo'lakchalarida urug'ning unib chiqishi, chin barg xosil qilishi, bo'yi shoxlanish davri, gullash va urug' tugish davrlari va boshqa barcha morfologik xususiyatlarda kuzatuvlarda o'rganilib, dala jurnallarida qayd qilib boriladi. Laboratoriya sharoitida tuproqning mexanik tarkibi elash usulida aniqlanadi. Shuningdek tuproq tar kibidagi o'simlik uchun zararli tuzlar miqdorini suvli so'rim usuli bilan quruq qoldiq CL SO_4 tuzlari miqdori aniqlash kabi va boshqa kuzatuvlar

bajariladi. O'suv davri oxirida o'simlikning yer ustki va biomassasi aniqlanadi. Shuningdek urug' to'plashi urug'ning pishib yetilishi xususiyatlari o'rganildi. O'simlikning yer ustki qismi (bar poya urug' dukkaklari) har birining massasi aloxida aniqlanadi. Ishlab chiqarishdagi amaliy tajriba dalasida 2008 yil maqbul deb topilgan variant tadbirlari sinab ko'rildi. Shuning bilan birgalikda yangi o'zlashtirilgan muddatdan buyon umuman ekilmay yotgan 0.20ga maydoncha 4marta sho'ri yuvilib, xaydalib indigofera ekiladi. Indigofera urug'ining unib chiqish imkoniyati va ekinning o'sib rivojlanishi umumiy uslubda o'rganiladi. 2006-2010 yili tajribalarda Indigoferaning o'suv davrida barg biomassasi to'plash yon shoxchalari shoxlanishi gullash va urug' dukkaklari to'plash sharoitlari o'rganiladi. O'simlikning o'suv davri oxirida umumiy biomassa xosildorligi o'simlikning barcha yer ustki va ostki qisimlarining aloxida miqdori aniqlanadi. Shuningdek yashil va quruq biomassa miqdori, urug' dukkaklarining pishib yetilishi va urug' xosildorligi o'rganildi. Tuproq va o'simlik namunalari analizlari ZEF/YUNESKO ning viloyat bo'limi Urganch Davlat Unversitetining Tabiatshunoslik faqulteti ilmi labararorialarida amalga oshirildi. Dala tajribalari uslubiyatlari xar yili YUNESKO ning O'zbekistondagi Vakolotxonasi tomonidan tuzilgan kamissiya ishtirokida aprobasiya qilib b orildi.

Tajribalarda xar xil tuproq sharoitida Indigofera o'simligining tuproq muxitiga ta'siri muntazam ravishda kuzatilib borildi. Buning uchun tuproq namunalari olinib ulrdagi tuzlar miqdorining davriy o'zgarishi o'rganildi. Ekinning tuproq ekologik xususiyatlariga ta'sirini xar yili baxor va kuz faslida tuproq unumdorligi sharoitlarini nazorat dala tuproqlari bilan taqqoslash asosida kuzatuvlar olib borildi.

2006-2010yilgi tajribalarda ekinning sug'orish rejimi belgilangan reja bo'yicha boshqarib borildi. Dunyo adabiyotlar sharxlaridagi ma'lumotlar va Indigoferaning biologic xususiyatlarini xisobga olib o'simlikni tuproq to'liq nam sig'imiga nisbatan o'rtacha 70-75% nam, saqlanishini ta'minlab su'g'orish muddatlari belgilandi. Sug'orish suvi "Chippaletti" suv o'lchagichi yordamida xisobga olinib borildi. Sug'orish muddati tuproqda tabiit nam miqdorini aniqlash, hamda o'simlik tashqi holatini xisobga olish bilan belgilab borildi. O'simlikning o'sishi: rivojlanish fazalari, biomassa to'pash qonuniyatlari va xosildorlik ko'rsatkichlari (Daspexov va Peregulov) uslubiyatlari asosida statistic analiz qilindi. Shuningdek o'simlikning hosili yashil quruq biomassasidan bo'yoq pigmenti olishning tarixiy usullaru orasida professor A.Ergashev tashkil qilgan uslubida 2006yil tajriba maydonchalarida yetishtirilgan Indigoferaning

biomassasidan oddiy usulda bo'yoq pigmentini ajratib olish usullari o'zlashtirildi.

2008-2009 yillarda Indigofera o'simligidan bo'yoq olish usullarini sakillantirish bo'yicha bir qancha ilmiy kuzatuvlar bajarildi. Shuning bilan birgalikda o'simlik biomassasidan bo'yoq bilan ipak,jun va paxta iplarini bo'yash tajriba sinov ishlari olib borildi. O'simlik urug' dukkakchalarini shaxsiy tanlov asosida yig'ib, maxalliy tuproq iqlim sharoitiga moslashgan Indigofera o'simligining "Feruz" navini yaratish bo'yicha qator ishlar qilindi. Indigoferani kuzgi bug'doydan keyin takroriy ekin sifatida o'stirish o'simlikdan o'suv mavsumi davomida ikki o'roq biomassa xosil yetishtirish va shu kabi boshqa xususiyatlarini o'rganish ishlari davom etmoqda.

3.2 Tajriba uchastkasidagi agrotexnologik ishlar.

Uchastka erta baxorda 3marta sho'ri yuvilib ekishga tayyorlanadi. Tajriba rejasi bo'yicha laboratoriya analizlari uchun ekish oldidan va vegetatsiya oxirida sizot suv satxigacha xar 20sm qatlamdan xamda xajm massa uchun xar 10sm dan 0.-0.5m gacha tuproq namunalari olinadi. Sug'orish muddati tuproqda chegaralangan dala nam sig'imi o'rtacha 75-80% bo'lganda belgilandi. Sug'orish suvi miqdori xar suvda kam miqdorda o'rtacha

gektariga 550³ miqdorda berildi. O'simlikning o'sish va rivojlanishi fenalogik kuzatuvlarda 10-15kundan kuzatilib maxsus jurnallarda qayt qilib borildi.

Ikkinchi tajriba ZEF/YUNESKO bo'limi xududida kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonda o'tkazildi. 16 iyun kuni bug'doy o'rilgan 0.021 ga maydonda qo'lda 25-28sm chuqurlikda tuproq ag'darilib qator orasi 30sm qilib pushta olinib urug' ekiladi va shu kuni sug'oriladi. O'suv oxirida to'plangan barg va o'simlik biomassasi xamda urug'ligi xisoblaandi. Shuningdek xar ikkala tajribada xam iqtisodiy samarasdorlik xiso kitob qilindi va tegishli xulosalar va takliflar belgilandi. O'simlik o'suv davrida bo'lakchalar 16marta sug'orildi, 10marta begona o'tlardan tozalandi. Indigo o'simligini o'stirish texnologiyalarida asosiylari urug'ni to'liq undirib olish, buning uchun tuproq tabiiy namini 75-80% to'liq nam sig'imi meyyorda saqlaash xamda yashil davri begona o'tlardan tozalash lozim. Butun o'suv davrida o'simlik bir marta bir gektar xisobiga 105 kg ammiak selitrasi xisobiga oziqlantiriladi. Lekin ekinni oziqlantirish usullari, o'g'it turlari to'g'risida bizda ma'lumotlar yetishmaganligi uchun birinchi yili biz meyyor bilan chegaralandik. Indigofera o'simligining parvarish qilishning muxim agrotexnik tadbirlaridan biri begona o'tlarga qarshi kurash choralarini qo'llashdir. Indigoning yangi unib chiqqan nixollari nimjon bo'lishligi va yer osti qismiga

nisbatan yer usti qismi boshlang'ich o'suv davrida juda sekin o'sishi sababli bunday begona o'tlarning salbiy ta'sir ko'rsatishi xavfi tug'iladi. Ko'p yillik begona o'tlar o'suv davrining oxirigacha o'sib ekinga zarar yetkazishi xavfi kuxatiladi. Agar begona o'tlar ko'payib ekinga xavfi tug'ulsa kimyoviy kurash choralarini qo'llash zaruriyati xam tug'iladi. Indigo ekinining dastlabki o'suv davrida e'tiborga loyiq bo'lgan agrotexnik tadbirlardan yana biri zararkunandalarga qarshi choralarini qo'llashdir. Ekin chin barg chiqargan davridan boshlab so'ruvchi xashorotlardan , o'simlik biti xavf tug'diradi. Unga qarshi kechiktirmasdan "Tipermetrin" preparati bilan 1 litr suvga 10 gr aralashtirib 2 marta ishlov berilganda yo'qoladi. O'suv davrining oxiriga kelib (avgust oyida) qaytadan akatsiya biti bilan zararlandi.unga qarshi baxordagi kurash tadbiri takrorlandi va ekin xashorotlardan saqlanib qolindi.

Iqtisodiy samaradorlik, so'm.

Tajriba uchastkasi 3.2.1jadval.

No	Agrotexnik tadbirlar	Sarf-xarajatlar	daromad	+ -
1	Chel olish	1725		
2	Sho'r yuvish 3marta	2125		
3	Qo'lda ag'darish	1200		
4	Pushta olish(0.035)	900		
5	Urug'ni ekish	1600		

6	Variantlarni sug'orish	4500		
7	O'tloqi qilish(10marta)	8250		
8	Xashorotlarga qarshi kurash	1500		
9	Preparat narxi	2000		
10	Mineral o'g'itlar ishlatish	500		
11	Ammiyak silitrasi narxi	7000		
12	Xosilni o'rish	2000		
13	Jami	33300		
14	Yashil massa xosili 200kg		96000	+62700

Yuqoridagi jadvalda uchastkada o'tkazolgan agrotexnik tadbirlarning sarf xarajatlari va olingan daromadlar keltirilgan. Iqtisodiy samaradorlik ikki qismdan iborat.

1.tajriba o'tkazilgan uchastka bo'yicha

2.xarajat va daromadlarni o'rtacha 1gektarga xisoblanadi.

Amaliy tajriba maydonidagi yashil biomassa xosildorligi
s/ga. 3.2.2-jadval

Kuzatuv nuqtalar	Biomassa xosili	Hosildorlik
------------------	-----------------	-------------

1	227	244.4
2	250	244.4
3	235	244.4
4	262	244.4
5	248	244.4

Tajriba dalasining ikkinchi qismidagi o'simliklar urug' dukkaklari to'la pishib yetilganda, tupdagi dukkaklarni 70-80% qo'ng'ir rangga kirgan davri, 25-oktyabr kuni yig'ishtirib olindi va ochiq xavoda quritildi. To'liq quritilgan o'simlik namunalari yanchilib urug' dukkaklari aloxida poya va barg biomassasi aloxida ajratib olindi.

Amaliy tajriba maydonidagi o'simlikning quruq xoldagi urug' xamda barg va poya biomassasi hosili. s/ga

Kuzatuv nuqtalar	Urug'i	Barg va poya	Jami
1	45.2	30.2	75.4
2	49.1	34.2	83.3
3	46.9	31.4	78.3
4	50.6	36.7	87.3
5	49.5	33.1	82.6

Jadval raqamlarini taxlil qilinsa o'simlik yer ustki quruq biomassasining 58-60% urug' dukkaklari 40-42% esa bar va poya biomassasi tashkil etgan.

1pM da 23-25 ta o'simlik qoldirish , urug' yetishtirish maqsadida o'stirilganda esa 15-18ta o'simlik qoldirish maqsadga muvofiq.

Indigoferani yorug'lik yoki barg biomassasi maqsadlarida o'stirish uchun yengil yoki o'rta qumloq tuproqli , yer osti sizot suvlar yuqori (1.3-1.5metr) joylashgan maydonlarda yuqori biomassa xosili yetishtirish mumkin.

3.3 Indigofera yashil biomassasi

Indigofera o'simligining asosiy biomassasi yerning ustki qismida shakllanadi. Uning ildizi tuproqqa chuqur kirib ketmaydi, yon ildizlari xam kam bo'lishi sababli umumiy o'simlik biomassasining juda kam qismini tashkil etadi. Asosiy biomassa urug', barg va poya qisimlaridan iborat. 2006-yilgi tajribalarimizda barcha takrorlanishdagi bo'lakchalarda 5tadan bir xil rivojlanishga ega bo'lgan o'simliklar o'rganildi. Kuzatiladigan o'simliklar o'rib olinib dalaning o'zida tarozida tortilda va barg urug'l ajratib olinib , bargi poyasi birgalikda, ildizi va urug'l biomassalari aloxida aniqlandi.

O'simlikning yashil biomassasi 6-oktyabr kuni yig'ishtirib olindi va xisob kitob qilindi. O'simlikning poyasi, bargi, ildizi va urug'l aloxida xisob qilindi. 1va3 variantlarda 5 ta o'simlikning poya va barg massasi 218.5 va 227.5gr, 2va 4 variantlarda esa nisbatan 353.3 va 368.0 grni tashkil qildi. Urug' massasi 1va3 variantlarda 212.5 va 269.5 gramm, 2va4 variantlarda esa 347.9 va 348.6 gramm bo'ldi. Shuningdek ildiz massasi bo'yicha xam yuqoridagi qonuniyat saqlanadi yani 1va 3 variantlarda 36.1 va 39.3 gramm, 2va 4 variantlarda esa nisbatan 44.2 va 45.2 gramm ildiz massasi xosil bo'lgan. Kuzatuvlar yakuni bo'yicha shunday xulosa qilish mumkinki o'simlik o'sishi va rivojlanishi kech kuzgacha davom qiladi. Ildiz sistemasining shakllanishi va

rivojlanishi xam boshqa o'simliklardan keskin farq qiladi, yani chin barg chiqarish vaqtida yer ustki qismiga nisbatan ildiz sistemasi 2 barobar tez o'sadi. Keyinchalik faqat yon ildizlar xosil qiladi va o'sishdan to'xtaydi.

Labaratoriya sharoitida o'simlik qisimlari aloxida 70* xaroratda 48 soat quritilib o'lchanadi. Shunday bo'lsa xam o'simlik tanasidagi asosiy namlik asosan bargi va tanasida saqlanishi kuzatildi. 6-oktyabr kuni barcha variantlardagi o'simliklarning umumiy tup sonlari va massasi aniqlanib umumiy biomassa xosili xisoblandi.

Indigoferani barg biomassasi yetishtirish maqsadida o'stirilganda 1pM da 23-25 ta o'simlik qoldirish maqsadga muvofiqdir.

Indigoferani kuzgi bug'doydan ketin qayta ekish sifatida o'stirish texnologiyasi va yashil biomassa xosili

Tajriba ZEF/YUNESKO xududida kuzgi bug'doy o'rib olingan 208m² uchastkada o'tkazildi. Uchastka tuprog'i yengil quruq mexanik tarkibli bo'lib unumdorligi past. Dala 7iyun kuni qo'lda 25-28 sm chuqurlikda ag'darilib 90sm qator oralig'ida pushtalar olindi va urug' 1-2sm chuqurlikda ekilib pushtalarga suv berildi. Urug'lar xavo xarorati yuqori bo'lganligi sababli 7-8 kunda unib chiqa boshlaydi. Uchastkaning bir qismida pushtalar bostirilib sug'orilganligi tufayli urug' siyrak unib chiqdi. Ekinning o'sish va rivojlanishi 22 iyun, 6-15 iyul, 2 avgust va 1

sentyabrda kuzatilib dala jurnalida qayt qilib borildi. O'simlik bo'yi 6 iyun kunda 21sm, 15 iyunda 33, 2 avgustda va 1 sentyabrga kelib esa nisbatan 58-67 sm ga yetganligi kuzatildi. 9 oktyabr kuni ko'k biomassa xosili o'rib olindi. O'rish oldidan dalaning 3 ta joyidan 5 ta o'xshash o'simliklar ildizi bilan olib o'rganildi. Kuzatuv va xisob kitoblar shuni ko'rsatdiki o'suv va rivojlanish davri oxirida xar bir tup o'simlik o'rtacha 59gramm barg va poya massasi, 57.6gramm urug' dukkaklari xamda 4.6gramm ildiz massalari to'plagan. Namunalar temastatda quritilgandan keyin deyarli 50% massasini yo'qotgan ya'ni barg va poya massasi 23.4, urug' dukkaklari 31.9 va ildiz massasi 2.3 gramni tashkil etgan. Demak hozirgi bug'doydan bo'shagan maydonlarga qayta ekin sifatida ekilgan Indigo o'simligi 1 tupda o'rtacha 121.0 gramm ko'k, yoki 57.6 gramm quruq massa to'playdi. Tajriba dalasidan olingan ko'k massa xosildorligi xisoblanganda 208m^2 dan jami 98 kg xosil olindi. Bu o'rtacha 1 gektar maydonga xisoblanganda xosildorlik 47 sentnerni tashkil qildi.

Hosildorlikning past bo'lishini dalaning deyarli yarmida ekin juda siyrak bo'lganligi bilan ifodalash mumkin.

3.4 Tajriba uchastkasi tuprog'ining unumdorlik dinomikasi.

Urgan Davlat universiteti o'quv-tajriba xo'jaligi 41*65N kenglikda, 60*65 E uzunlikda va 98 m balandlik geografik nuqtada toylashgan. Uning jami maydoni 24.5 gektar bo'lib, shundan 16 gektarini ekin maydoni tashkil etadi. Ekin yerlari yangi o'zlashtirilgan yerlar bo'lib xar xil mexanik tarkibli tuproqlardan iborat. O'quv tajriba ekin maydonlari tuprog' l Amudaryo alyuvil yotqiziqalaridan xosil bo'lgan o'tloqi tuproqlardan iborat. Xo'jalikning shimoliy sharqiy qilib 4 km uzoqlikdan Amudaryo oqib o'tadi. Daryo suvi esa yer osti suzot suvlarining shakillanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham daryo suvi satxiga bog'liq xolda sizot suvi satxi doimo o'zgarib turadi. Xo'jalikning shimoliy chegarasida to'qay obod qanali va xududini janubiy cgegara qismida oktabr arnasuv tizimini tashlama qanali bo'lib bu xam o'z navbatida yer osti suvlari rejimiga ta'sir qiladi. Bu yil mobaynida yer osti suvlari qishki davrda (dekabr, yanvar,fevral)oylarida 2-2.5 metrga tushadi, erta baxorgi-fevral oxiri va mart boshidagi sho'r yuvishlar davrida ya'ni yozda 1.20 metrga xatto ayrim maydonlarda 80-90sm gacha ko'tarilib ketadi. Natijada issiq faslda o'simlikdan ko'tarilayotgan transpiratsiya suvlarini hamda,tuproqdan ko'tarilayotgan yer osti suvlarini bug'lanishiga sarfi miqdori keskin ortib ketadi va baxorda

yuvilgan tuz miqdorining qatlamlarida qolgan bir qismi yana tuproq yuza qismiga chiqadi.

2006 yilda indigofera ekini urug'l ekilgan maydon tuprog'i sho'rlangan o'tloqi, yangi o'zlashtirilgan, kam madaniylashgan unumdorligi past yer bo'lib 1992 yilgacha bo'lak-bo'lak qilib o'zlashtirilib sho'ri yuvilib ekin ekilib kelingan lekin tuproqning kuchli sho'rlanganligi sababli ko'pchilik xollarda xatto urug' xam unib chiqmagan, ayrim xollarda juda kam miqdorda xosil olingan. 2002 yilda 2 gektar yer maydoni ZEF/UNESCO tashkilotiga tajriba uchastkasi sifatida ajratildi va janubiy qismidagi toshlama qanali bo'ylab vaqtincha drenaj olindi. Tuproq mexanik tarkibi analiziga ko'ra 0-10 sm qatlam diometri 0.25-0.05mm, bo'lgan asosan changsimon qumdan iborat. Pastki qismiga o'tish bilan changsimon qum kamayadi va o'rtach qumloq mexanik tarkibli qtlam uchraydi. Tuproq qtlamining 60 sm pastida xam o'rta mexanik zarrachalar bo'lib, kichik- kichik qalinlikda (2-3sm) yengil qumloq tarkibli qatlamchalar uchraydi. 1 metr chuqurlikda tuproqning mexanik zarrachalari yana o'zgaradi va o'g'ir qumloq mexanik tarkibli qtlamchalar uchraydi.

Dalaning tuproq sho'ri yuvilgandan keyin tuproqni ishlashdan oldin tuproq qtlamining 0-50sm chuqurlikda xar 10sm dan tuproqning hajm massasi aniqlanadi. Tuproqni 0-10 sm qatlamida hajm massa 1.41 g/sm^3 ni

tashkil qiladi, pastki 10-20 va 20-30 sm qatlamlar hajm massasi ham deyarli yuqori qatlam ko'rsatkichlariga yaqin. lekin 30 sm chuqurlikdan pastda hajm massasining ortishi kuzatiladi. 30-50 sm chuqurlikdagi qatlamlarda tashkil qiladi. Bunday xolatni uchastka tuprog' o'zlashtirilgandan keyin tuproq ishlanib ekin ekilgani haydov qatlami esa bir necha yillar umuman qo'zg'almay saqlanganligi bilan isbotlash mumkin.

Tuproq haydov qatlamida hajm massa ekish oldidan o'rtacha $1.38-1.41 \text{ g/sm}^3$ bo'lgan bo'lsa suv davri oxiriga kelib $1.45-1.53 \text{ g/sm}^3$ ga oshgan. Tajriba maydonchasidan olingan tuproq namunalari analizlari tuproqning chirindi va oziq moddalar bilan juda kam ta'minlanganligini ko'rsatadi. 4 yil moboynda tuproq ishlanmaganligi sababli va ekin ekilmaganligi sababli tuproq qatlamlarida chirindi va oziq moddalar miqdori kamayib ketgan. Tuproqning yuza 0-50 sm qatlamida chirindi miqdori 0.60-0.65% ni tashkil qiladi. Shuningdek bu qatlamda oziq moddalar miqdori xam juda kam, tuproqda umumiy azot miqdori 0.043-0.046%, harakatchan fosfor $3-6 \text{ mg/kg}^{-1}$ va kaliy $90-102 \text{ mg/kg}^{-1}$ ni tashkil qiladi. Tajriba yakunlari shuni ko'rsatadiki Indigofera ildizidagi bakteriyalar faoliyati va ildiz xamda ang'iz qoldiqlari tuproqning g'ovakligi va boshqa fizik mexanik xususiyatlarini yaxshilaydi.

Tuproqning ustki 0-20sm qatlamida hajm massa, 2006 yilda $1.39-1.41\text{gr/sm}^3$ bo'lgan bo'lsa ikkinchi yil $1.38-1.39\%$, uchunchi yili $1.36-1.37\text{gr/sm}^3$ bo'lgan. Bu tuproq g'ovakligini ortishi donadorligining yaxshilanishi va natijada qatlamda o'simlik hayoti uchun zarur sharoitlarni yaratishni taminlaydi. To'rtinchi yili kuzatuvlar tuproqda chirindi miqdorini ortib borishini ko'rsatadi. 2008 yilda chirindi miqdori $0.69-0.73\%$ ni tashkil etgan bo'lsa 2009 yilga kelib $0.74-0.81\%$ ga yetgan ya'ni $0.05-0.08\%$ ga oshgan. Demak to'rt yilda tuproq ustki qatlamidagi chirindi miqdori oz bo'lsada ortib ang'iz massalarining aralashib chirishi sababli xosil bo'lishi ilmiy manbalarda keltirilgan. Demak ekinlar ildizidagi tugunak baqteriyalar ta'sirida atmosferadagi azotni o'zlashtirish bilan birgalikda uning ang'iz va ildiz massalari xam tuproqda to'planib chirindi va tuproqdagi tabiiy unumdorlik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Dukkakli o'simliklar ildizidagi baqteriyalar orqali tuproqni oziq elementlari bilan boyitish xususiyatlari ilmiy manbalarda va amaliy sharoitlarda qayd qilindi. Lekin bu ekinlar o'simlikning ildizida o'stirayotgan beda, loviya, mosh va boshqa dukkakli o'simliklar misolida keltiriladi. Tropic ekin xisoblangan Indigofera o'simligining bunday xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar yo'q. tajribalarda bu ekinning biologic xususiyatlari xam o'rganilgan. Beda 3yilda 1 gektar yozda o'rtacha 350-500kg biologic azot

to'plasa, Indigofera bakteriyalarining soni va xajmiga qarab shunchalik azotni bu ekin bir yilda to'plashi mumkinligini aytish mumkin. 2006 yilda tuproqdagi umumiy azot miqdori 0.043-0.046% ni tashkil qilgan. 2007 yilda bu ko'rsatkich 0.050-0.055%ga oshgan. Bunday qonuniyat keyingi yillarda xam kuzatiladi. Qumlardan 2008 yilda 0.058-0.065% va 2009 yilda 0.071-0.075% bo'lgan. Demak o'simlik ildizidagi rizobakteriyalar bo'lsa vaqt o'tishi bilan tuproq qtlamini oz bo'lsa xam azotga boyitib borishi isbotlangan. Shuningdek tuproqdagi xarakatchan fosfor moddasining o'zgarish dinamikasi o'rganilganda azot moddasidagi qonuniyatga teskari holat kuzatilgan.ya'ni yil o'tishi bilan xarakatchan fosfor miqdori kamayishi aniqlangan. 2006 yil o'rtacha 6-7 mg/kg tuproq bo'lgan bo'lsa 2007 yilda 5-6mg/kg ga 2008 yilda esa 3-4 mg/kg ga kamaygan. 2009 yilda bu ko'rsatkich 2-3 mg/kg ga kamaygan. Bu qonuniyatni Indigoferaning fosfor moddasini ko'p istemol qilishi bilan isbotlash mumkin.

2006 yilda 1 kg tuproqdagi o'rtach 80-100 mg kaliy bo'lgan bo'lsa, 2007 yilda 100-102 mg ni tashkil etgan. 2008 yilda kaliy miqdori yana oshganini kuzatish mumkin va 103-106 mg ni tashkil etgan. 2009 yilda esa kaliy miqdori deyarli o'zgarmagani kuzatilgan. Yuqoridagidan kelib chiqib Indigofera ekinini o'stirish bilan tuproqni unumdorligini oshirish imkoniyatlari yaratildi. Bundan

tashqari uni o'stirish tuproqning fizik-mexanikaviy xususiyatlarini xam yaxshilaydi, natijada tuproqning tabiiy unumdorligini tiklaydi va oshiradi.

Xulosa

Tuproq unumdorligini oshirishning biologic usullarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan to'rt yillik dala tajribalari yakunlarini taxlil qilib quyidagi xulosalarni qilish mumkin.

1. Tuproq unumdorligini oshirishning biologic usullari bu tuproqni chirindi va oziq elementlari bilan boyituvchi dukkakli ekinlarni ekish, ayniqsa mintaqamizda yangi iqlimlashtirilgan Indigofera ekinini ekish maqsadga muvofiqdir.
2. Indigofera ekinini ildizidagi tugunak baqteriyalar faoliyati xamda ildiz va ang'iz qoldiqlari tuproqqa qo'shilib uning fizik mexanik xossalarini yaxshilaydi. Tuproqda xajm massasi ekin o'stirilgan 4 mobaynida yuqorigi 0-20 sm qatlamda tuproqning donador chirindili, g'ovak bo'lishini ta'minlaydi.
3. O'simlikning ildizidagi baqteriyalar faoliyati va ildiz qoldiqlari xisobiga tuproqda chirindi miqdori o'rtacha 0.15-0.20% ga oshgan.
- 4 Indigofera ekinini ildizidagi rizobakteriyalar atmosferada azotini o'zlashtirib tuproqni oziq moddalarga boyitadi. 4 yil ekilgan indigofera tuproqdagi umumiy azot miqdorini 0.043% dan 0.075% gacha oshiradi. Erkin fosfor miqdorining kamayishi kuzatiladi. Buni o'simlikning fosforni ko'p istemol qilishi ko'rsatadi. Umuman dukkakli ekinlar barchasi fosforni ko'proq

istemol qiladi. Kaliy miqdorini esa o'rtacha 80dan 105 mg/kg gacha ko'paytirad.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ho'jaliklardagi degradatsiyaga uchragan yerlarning unumdorligini tiklash uchun Indigo'fera o'stirishni tafsiya qilish mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar

- 1.I.A.Karimo'v "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida"
Toshkent "O'zbekiston" 1997
- 2.I.A.Karimo'v "O'zbekiston buyuk kelajak asri"
O'zbekiston nashiryoti 1998
- 3.Bahodiro'v M. "Tuproqshunoslik" 1971
- 4.Boboho'jaev I. Uzoqo'v P. "Tuproqning tarkibi
hossalari va analizi "1990
- 5.D.Yormato'va P. Uzoqo'v "Tuproqshunoslik va
umumiy dehqonchilik" Toshkent 2002.
- 6.M.BaxodirovA.Rasulov "Tuproqshunoslik" Toshkent
1975.
- 7.TursunovI.TPochvennnieusloviyaoroshtixzamelzapadn
aychastiUzbekistonaToshkent 1981
- 8.TursunovI. AbdullayevS.
PochvavennofiziceskayaxarakteristikanizovevAmudari.
ToshkentFan 1987. 120s.
- 9.UmarovM.Yu. "PochvaUzbekistana" Toshkent 1985
10. Андреюн Е.Ю.Актуальные проблемы
сельскохщзяйственной микробиологи 1974 48-53с
- 11.Дюшафур Ф Основыпочвовидение

12.ПАНКОВ М.А. Почваведение

13.ПАНКОВ М.А. Мелиоритивние почвавадение

14.Вилинский Д.Г. Почвавадиние 1957

15. Качинеский Н.А Физика почв